“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=367

2026-yil
5-son
may
ISSN 3093-8546



Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimi va uning huquqiy kafolatlari

Malika Eraliyeva,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti, Mehnat huquqi shubasi o‘qituvchisi
e-mail: m.erliyeva@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimi, uning huquqiy asoslari hamda amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan kafolatlar tahlil qilinadi. Xususan, ta’lim, mehnat va ijtimoiy ta’minot sohalarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yaratilgan imkoniyatlar, nafaqa turlari hamda ularni tayinlash tartibi batafsil yoritilgan. Shuningdek, proaktiv xizmatlar mexanizmi va uning amaliy ahamiyati ochib berilib, tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. nogironlik, ijtimoiy himoya, huquqiy kafolatlar, nafaqa, proaktiv xizmatlar, inklyuziv ta’lim, ijtimoiy ta’minot

Аннотация. В данной статье анализируется система социальной защиты лиц с инвалидностью в Республике Узбекистан, ее правовые основы и гарантии, предусмотренные действующим законодательством. В частности, подробно освещаются возможности, созданные для лиц с инвалидностью в сферах образования, труда и социального обеспечения, виды пособий и порядок их назначения. Также раскрывается механизм проактивных услуг и его практическое значение, выдвигаются предложения по совершенствованию системы.

Ключевые слова. инвалидность, социальная защита, правовые гарантии, пособие, проактивные услуги, инклюзивное образование, социальное обеспечение

Annotation. This article analyzes the system of social protection for persons with disabilities in the Republic of Uzbekistan, its legal foundations, and the guarantees provided under current legislation. In particular, it covers in detail the opportunities created for persons with disabilities in the fields of education, labor, and social security, as well as types of benefits and the procedures for their assignment. Furthermore, the mechanism of proactive services and its practical significance are revealed, and proposals for improving the system are put forward.

Keywords. disability, social protection, legal guarantees, benefit, proactive services, inclusive education, social security

So‘nggi yillarda mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotida boshqa shaxslar bilan teng va erkin ishtirok etishini ta’minlash maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu yo‘nalishga oid alohida normalarning mustahkamlanishi bu boradagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, Konstitutsiyaning 50-moddasida ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi qayd etilgan.

Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasida jismoniy, aqliy yoki ruhiy, shuningdek, sensor (sezgi) nuqsonlari bo‘lgan bolalar, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta hamda o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim olishi kafolatlab qo‘yilgan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish masalasi jahon ilmiy hamjamiyatida bir necha fundamental nazariyalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, ushbu sohadagi yondashuvlar orasida britaniyalik sotsiolog Maykl Oliverning (Michael Oliver) qarashlari muhim o‘rin tutadi. U nogironlikning “ijtimoiy modeli”ni ilgari surib, nogironlik shaxsning jismoniy yoki aqliy nuqsoni emas, balki jamiyatning ushbu shaxslar ehtiyojlarini hisobga olmaganligi va ularning ishtirokiga to‘sqinlik qiluvchi muhit ekanligini ta’kidlaydi. Bu nazariya ijtimoiy himoya tizimini shunchaki tibbiy yordam ko‘rsatishdan tashqari, to‘siqlarsiz muhit yaratish va jamiyatni transformatsiya qilishga yo‘naltiradi[1].

O‘z navbatida, Nobel mukofoti sovrindori **Amartya Sen** o‘zining “Imkoniyatlar yondashuvi” (Capability Approach) nazariyasida ijtimoiy himoya va moddiy qo‘llab-quvvatlashning asl mohiyatini ochib beradi. Uning fikricha, ijtimoiy yordam faqat moddiy mablag‘ berish bilan cheklanmasligi, balki asosiy maqsad shaxsning jamiyatda o‘zi munosib ko‘rgan hayot tarzini shakllantira olishi uchun unga real imkoniyatlar va erkinlik taqdim etish bo‘lishi lozim. Bu yondashuv nogironligi bo‘lgan shaxslarga beriladigan nafaqa va imtiyozlarni ularning ijtimoiy mustaqilligini ta’minlovchi vosita sifatida ko‘rish imkonini beradi[2]. Mazkur ijtimoiy-iqtisodiy erkinliklarni huquqiy jihatdan mustahkamlash masalasida xalqaro ekspert **Jyerom Binkenbax** (Jerome Bickenbach) muhim mulohazalarni ilgari suradi. U nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini maxsus imtiyozlar emas, balki inson huquqlarining ajralmas qismi deb hisoblaydi. Binkenbaxning fikricha, huquqiy kafolatlar qog‘ozda qolmasligi uchun davlat tomonidan shaffof monitoring va proaktiv xizmatlar ko‘rsatish mexanizmlari joriy etilishi shart. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini bevosita davlat boshqaruvi sifatiga bog‘laydi[3].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Huquqiy maqom masalasini falsafiy jihatdan boyitgan **Tereza Degener** (Theresa Degener) ijtimoiy himoya tizimi shaxsni faqatgina “himoya obyekti” sifatida emas, balki o‘z hayotiga doir qarorlarni mustaqil qabul qiluvchi to‘laqonli “huquq subyekti” sifatida tan olishi lozimligini uqtiradi. Bu inson huquqlari modeli davlatning ijtimoiy siyosatini shaxs qadrini ulug‘lash tamoyiliga tayantiradi[4].

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat bozoridagi o‘rni va ijtimoiy integratsiyasini tahlil qilgan fransuz olimi **Robert Kastel** (Robert Castel) esa mehnat huquqidagi kafolatlarni o‘ziga xos tarzda izohlaydi. Uning fikricha, qisqartirilgan ish vaqti yoki qo‘shimcha ta’tillar kabi imtiyozlar shunchaki yordam emas, balki shaxsning jamiyatdagi fuqarolik maqomini saqlab qolish va uni ijtimoiy yakkalanishdan (exclusion) himoya qilishning fundamental vositalaridir. Shunday qilib, xalqaro olimlarning qarashlari nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoya qilish tizimi nafaqat moddiy, balki huquqiy, ijtimoiy va falsafiy jihatdan yaxlit bo‘lishi kerakligini isbotlaydi[5].

Bundan tashqari, mehnat qonunchiligida ham nogironligi bo‘lgan shaxslarga bir qator kafolatlar berilgan bo‘lib, ular qatoriga qisqartirilgan ish vaqti rejimida ishlash hamda bu uchun normal ish vaqtida ishlayotgan xodimlar bilan teng miqdorda haq olish huquqini kiritish mumkin. Shuningdek, ularga beriladigan har yilgi mehnat ta’tili o‘ttiz kalendar kundan kam bo‘lmasligi belgilangan. Mehnat kodeksining 227-moddasiga ko‘ra, birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta’tili umumiy tartibda xodim olti oy ishlaganidan keyin berilsa, I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun esa olti oy o‘tguniga qadar ularning xohishiga ko‘ra har yilgi mehnat ta’tili beriladi. Shu va boshqa mehnat qonunchiligidagi kafolatlar nogironligi bo‘lgan shaxslarga taqdim etilgan muhim ijtimoiy-huquqiy himoya vositalari hisoblanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxs tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yildagi O‘RQ-641-son qonunida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra nogironligi bo‘lgan shaxs ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng, to‘liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj bo‘lgan barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari mavjud shaxs hisoblanadi.

“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari mavjud bo‘lib, ularning mazmun-mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Eng avvalo, jamiyatda **nogironlik belgisiga ko‘ra kamsitilishga yo‘l qo‘ymaslik** qat'iy belgilab qo‘yilgan. Bu har bir insonning qadr-qimmati uning jismoniy imkoniyatlaridan ustun ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, **insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi** prinsipi orqali barcha fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotda bir xil darajada ishtirok etishi uchun huquqiy zamin yaratiladi. Ayniqsa, yosh avlod vakillariga nisbatan **nogironligi bo‘lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o‘z individualligini saqlab qolish huquqini**

hurmat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu prinsip bolalarning o‘ziga xosligini tan olgan holda, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa, kundalik hayotda **obyektlar va xizmatlarning qulayligi** (inklyuziv muhit) ta'minlanishi shart. Binolar, transport va axborot texnologiyalari hamma uchun ochiq bo‘lishi insonlarning mustaqil hayot kechirishiga imkon beradi. Yakuniy maqsad esa **nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish** orqali ularni chetlatishga barham berish va har bir insonning mamlakat taraqqiyotidagi ishtirokini ta'minlashdan iboratdir.

Yuqorida aytilgan qonunga ko‘ra, ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan bo‘lib, u eng avvalo nogironligi bo‘lgan shaxslarning har qanday ko‘rinishdagi kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan tizimli va kompleks chora-tadbirlar ko‘rishni o‘z ichiga oladi. Davlat tomonidan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning huquqlari va imkoniyatlari tengligini boshqa fuqarolar bilan bir xil darajada amalda ta'minlash siyosatning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalariga, jumladan qarorlar qabul qilish jarayonlariga keng jalb etish, shuningdek, jamiyatda ular haqida ijobiy tasavvurni shakllantirish hamda ularning huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish masalalari bo‘yicha uzluksiz ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka barcha darajalarda qat'iy rioya etilishini ta'minlash hamda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirishni nazarda tutadi. Davlat siyosatining eng muhim amaliy natijalaridan biri sifatida, nogironligi bo‘lgan shaxslarning maktabgacha ta'lim, umumiy o‘rta va professional ta'limdan tortib, oliy va oliy ta'limdan keyingi barcha bosqichlarda to‘siqsiz inklyuziv ta'lim olish imkoniyatlari kafolatlanmoqda. Bu maqsadlarga erishishda faqat davlat tuzilmalari bilan cheklanib qolmasdan, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida mustahkam ijtimoiy sheriklik va hamkorlik aloqalarini rivojlantirish ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimida nogironligi bo‘lgan shaxslarni moddiy qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 119-son qaroriga ko‘ra, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan bo‘lib, unga muvofiq nogironligi bo‘lgan shaxslarga hamda ularni parvarishlayotgan shaxslarga bir qator nafaqalar tayinlanadi. Jumladan, nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik nafaqasi, parvarishlash nafaqasi, nogironlik nafaqasi, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi hamda yoshga doir nafaqa shular

jumlasidandir.

Amaldagi tartibga ko‘ra, 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga nogironlik guruhlari berilmaydi hamda ularga nafaqa proaktiv shaklda tayinlanadi.

Proaktiv shakl deganda, fuqarolarning bevosita murojaatisiz, vakolatli organlar o‘rtasidagi elektron axborot almashinuvi asosida nafaqaning avtomatik tarzda tayinlanishi tushuniladi. Xususan, Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tomonidan nogironlik belgilanganidan so‘ng 5 daqiqa ichida nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bola va (yoki) uning qonuniy vakili to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimiga yuboriladi. Mazkur ma’lumotlar olinganidan so‘ng 5 daqiqa ichida ushbu tizim orqali qonuniy vakilning bola bilan qarindoshlik munosabatlarini aniqlash uchun Adliya vazirligiga elektron so‘rov yuboriladi. So‘rov kelib tushganidan so‘ng 5 daqiqa ichida tegishli ma’lumotlar yana tizimga qaytariladi va natijada kelib tushgan ma’lumotlar asosida nafaqa tayinlash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Nafaqa tayinlangan taqdirda murojaat qiluvchiga nafaqa tayinlangan muddat, uning miqdori hamda uni qachon va qayerdan olish mumkinligi haqida SMS-xabar yuboriladi. Nafaqa tayinlash rad etilgan taqdirda esa rad etish sabablari ko‘rsatilgan holda murojaat qiluvchiga SMS-xabar yuborilishi nazarda tutilgan. Bu esa tizimning shaffofligi va ochiqligini ta’minlaydi.

Parvarishlash nafaqasi vakolatli organ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-fevraldagi PF-74-son farmoniga ilovada belgilangan kasalliklarga chalingan hamda o‘zgalar parvarishiga muhtoj deb topilgan nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning qonuniy vakillariga tayinlanadi. Ushbu nafaqa qonuniy vakilga u pensiya yoki boshqa nafaqa olishidan qat’i nazar, har bir bola uchun alohida belgilanadi va proaktiv shaklda tayinlanadi.

Nogironlik nafaqasi esa pensiya tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga taqdim etiladi. Bunda faqat nogironlikning I va II guruhlari ushbu nafaqani olish huquqiga ega hisoblanadi. Nafaqani olish uchun murojaat qiluvchi davlat xizmatlari markaziga, ushbu markazlarning ijtimoiy xodimlariga yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyati doirasida har bir mahalla fuqarolar yig‘inida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining ijtimoiy xodimlari faoliyat yuritib, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga, jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarga nafaqa tayinlanishida amaliy ko‘mak ko‘rsatib kelmoqda.

Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lmagan vafot etgan shaxsning qaramog‘ida bo‘lgan oilaning mehnatga qobilyatsiz a’zolariga tayinlanadi. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasiga muvofiq, bunday shaxslar qatoriga farzandlar,

aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar kiradi, agar ular 18 yoshga to‘lmagan bo‘lsa yoki 18 yoshga to‘lguniga qadar nogironligi bo‘lgan bola bo‘lib qolgan bo‘lsa. Shuningdek, agar ushbu shaxslarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi mavjud bo‘lmasa, ota, ona, o‘gay ota, o‘gay ona, er yoki xotin, agar ular pensiya yoshiga yetgan yoki nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘lsa, qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda mazkur nafaqani olish huquqiga ega hisoblanadi.

Yoshga doir nafaqa esa pensiya olish uchun zarur ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga tayinlanadi. Zarur ish staji deganda kamida 7 yillik ish staji tushuniladi. Ya’ni, 7 yildan kam ish stajiga ega bo‘lgan shaxslarga pensiya tayinlanmaydi va ular yoshga doir nafaqa olish huquqiga ega bo‘ladilar. Ushbu nafaqa bolalikdan nogironligi bo‘lgan farzandi bor yoki bo‘lgan onalarga 55 yoshdan, ayollarga 60 yoshdan hamda erkaklarga 65 yoshdan tayinlanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimi keng qamrovli va izchil huquqiy asosga ega bo‘lib, unda ta’lim, mehnat va ijtimoiy ta’minot sohalarida muhim kafolatlar nazarda tutilgan. Ayniqsa, proaktiv xizmatlar tizimining joriy etilishi ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligini oshirib, fuqarolarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tezkorligi va shaffofligini ta’minlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimi bugungi kunda davlat ijtimoiy siyosatining eng ustuvor va strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu toifadagi fuqarolarning huquq va manfaatlarini kafolatlovchi, ularning qadr-qimmatini ulug‘lovchi mustahkam huquqiy baza hamda institutsional asoslar yaratildi. Biroq zamonaviy talablar va xalqaro standartlar ushbu tizimni mazmunan boyitish va mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Kelajakdagi rivojlanish jarayonida ijtimoiy himoyani faqat moddiy yordam ko‘rsatish sifatida emas, balki shaxsning jamiyatga to‘liq integratsiyalashuvi uchun sharoit yaratish deb tushunish lozim. Bu borada aholining, ayniqsa nogironligi bo‘lgan shaxslarning mavjud ijtimoiy xizmatlar va nafaqalar to‘g‘risidagi xabardorligini oshirish orqali huquqiy savodxonlikni yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda inson omilini kamaytirish va shaffoflikni ta’minlash maqsadida proaktiv xizmatlar ko‘lamini kengaytirish hamda barcha turdagi ijtimoiy to‘lovlarni to‘liq raqamlashtirish tizim samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek, jamiyatda “to‘siqsiz muhit” yaratish nafaqat jismoniy infratuzilmani moslashtirishni, balki ijtimoiy obyektlarning barcha uchun teng darajada qulay bo‘lishini nazarda tutadi. Bu jarayonda ijtimoiy xodimlarning roli beqiyos bo‘lib, ularning malakasini muntazam oshirib borish va faoliyatini zamonaviy uslublar asosida kuchaytirish har bir ehtiyojmand shaxsga individual yondashuvni kafolatlaydi. Eng asosiysi, nogironligi bo‘lgan shaxslarni mehnat bozorining faol ishtirokchisiga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

aylantirish, ularni ish bilan ta’minlashning innovatsion va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarini joriy etish orqali ularning jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokini ta’minlash mumkin. Zero, tizimli islohotlar va keng qamrovli yondashuv natijasida yaratilgan inklyuziv muhit har bir fuqaroning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Oliver, M. (1990). The Politics of Disablement. London: Macmillan Education.
2. Sen, A. (2009). The Idea of Justice. Cambridge: Harvard University Press.
3. Bickenbach, J. (2011). The World Report on Disability. World Health Organization & World Bank.
4. Degener, T. (2017). A New Human Rights Model of Disability. In: The UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities.
5. Castel, R. (2003). From Manual Workers to Wage Laborers: Transformation of the Social Question. Transaction Publishers.